

**TARBIYALAB TA'LIM BERAYLIK****Akramov Mehriddin Mirzayevich**

Buxoro viloyat Jondor tumani

47-umumta'lim maktabi Tarbiya fani o'qituvchisi

**Abdullayeva Dilrabo Rustamovna****Nekova Lola Qaxxorovna**

Buxoro viloyat Jondor tumani

47-umumta'lim maktabi

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17221748>**Annotasiya.**

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalash juda muhim ahamiyatga egadir. Ularga ta'lim bilan barobar darajada tarbiya ham berish lozimdir. Shu sababli ularga o'zlarini qanday tutushni, kattalarga hurmatda kichikka izzatda bo'lishni o'rgatish kerakdir. Boshlang'ich sinflarga muomila odobini, nutqni, xulq-atvorini, odob qoidalarini tog'ri o'rgatish va ularni har tomonlama tarbiyalash va tarbiya berish haqida.

**Kalit so'zlar:** tarbiya, tarbiyaning maqsadi, oila tarbiyasi, xulq-odob qoidalari.

"Tarbiyalab ta'lim berish" deganda, ta'lim berish jarayonida shaxsni ma'naviy, axloqiy va ijtimoiy jihatdan rivojlantirishni nazarda tutadi. Bu jarayonda o'quvchiga bilim berish bilan bir qatorda ularda salbiy xulq-atvorni yo'qotish, ijobiy xislatlarni shakllantirish, hayotga va mehnatga tayyorlash kabi maqsadlar ko'zda tutiladi.

Ta'lim – bilim berish, malaka va ko'nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasidir. Ta'lim jarayonida ma'lumot olinadi va tarbiya amalga oshiriladi. Ta'lim tor ma'noda o'qitish tushunchasini anglatadi, lekin u faqat turli tipdagi o'quv yurtlarida o'qitish jarayonini emas, oila, ishlab chiqarish va boshqa sohalarda ma'lumot berish jarayonini ham bildiradi.

**ASOSIY QISM**

Tarbiya deganda shakillanayotgan shaxsda shaxsiy, axloqiy sifatlarni shakllantirishni tushunamiz. Tarbiya ta'lim berish bilan bir mustahkam aloqada bolg'ani holda o'ziga xos qonuniyatlarga ham egadir. Ta'lim tarbiya yogana jarayondir. Lekin ular bir-biriga aynan o'xshash emas. Ta'lim va tarbiyaning birligi avvola, ularning maqsadining umumiyligidadir.

Abdulla Avloniyning "Dars ila tarbiya orasida bir oz farq bo'lsa ham bir-biridan ayrilmaydigan, birining biriga bog'langan kabidir" deb takidlayshi bejizga emas. Ma'lum bo'ladiki, ta'lim va tarbiyani bir-biridan ajratish mumkin

emas. Shu bois, hozirgi kun pedagogikasining asosiy vazifasi bilim berib, tarbiyalash tamoyiliga ko'ra tarbiyalab, bilim berish bo'lmag'i lozim.

Yosh avlodlarga tarbiya berishdek murakkab vazifani hal etishda maktab juda muhim ahamiyati bor. Maktab ular uchun bilim maskani bo'lish bilan bir qatorda tarbiya olish maskani ham hisoblanadi. Ayniqsa bolalarni tag'ri tarbiyalash muhim ahamiyatga egadir. Ularni tarbiyalashda oilani o'rni ham muhim ahamiyatga egadir.

Mirzo Ulug'bekning oila muhitini yaxshilash, sog'lom tarbiya berish haqida quyidagi qarashlari mavjud. Bolaning bilim olishiga bo'lgan qiziqishi, havasini oshirishda oila muhim o'rin egallaydi. Oilada ota - onalar bilimli bo'lishini, tarbiya berishda ota-onaning o'zi o'rnak va hayotiy misol bo'lishi kerak.

Xalqimizda "Qush uyasida ko'rganini qiladi" degan naql bejizga aytilmagan. Har bir ota-ona o'z farzandi uchun ko'zgudir. Ularning muomala va munosabati, o'zini tutishi farzandiga bo'lgan e'tibori alohida ahamiyatga egadir. Buyuk mutafakkir shoirimiz Alisher Navoiy farzand tarbiyasi xususida shunday deydi: "Yosh bolaga nisbatan eng zarur ish bilki, uni kichkinaginaligidan parvarish qilish- dir deganlar.

Jadid adabiyotining namoyandasi Abdurauf Fitrat jamiyat rivoji va yurt ravnaqi yo'lida oilaning o'rni xususida fikr yuritib, "Oila" asarida shunday mulohazalarni bildiradi: "Har bir millatning saodati va izzati, albatta, shu xalqning ichki intizomi va tatuvliligiga bog'liq. Tinchlik va osoyishtalik shu millat oilalarning intizomiga tayanadi. Qayerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va muazzam bo'ladi.

Yosh bolalar tarbiyani o'zidan kattalardan oladilar. Bola kattalarning tajribalarini qoldi emas balki faol ravishda o'zlashtiradi. Bu o'zlashtirishda uning ongli harakati tirishqoqligi katta ahamiyatga ega bo'ladi. Tarbiyalanuvchilar muayyan darajada aktiv faoliyat ko'rsatmasalar tajriba bilimini o'zlashtira olmaydilar. Bolaning yashi ulg'aygan sari bu faollik tobora ko'proq mustaqil xususiyatlarga ega bo'lib boradi: tarbiyalanuvchilar o'zlarida dunyoqarashni tarkib toptirishga o'z-o'zini takomillashtirish tabiat jamiyat va turmushda uchraydigan hodisalarni tushunishga hamda idrok etilgan narsalarga tanqidiy munosabatda bo'lishga ko'nika boradilar.

Tarbiya - "Pedagogika", ya'ni bola tarbiyasining fani Ilmiy axloqining asosi tarbiya oldigidan shu xususida bir oz so'z so'ylaymiz. Bolaning salomati va saodati uchun yaxshi tarbiya qilmoq tanani pok tutmoq, yosh tutmoq, yosh vaqtdan maslakini tuzatmoq, yaxshi xulqlarni o'rgatmoq, yomon xulqlardan saqlab o'sdurmoqdur. Tarbiya qiluvchilar tabib kabiturki, tabib xastaning

badanidagi kasaliga davo qilgan kabi tarbiyani bolaning vujudidagi jahl maraziga "yaxshi xulq" degan davoni ustidan berub, katta qilmog'i lozimdir. Zeroki, "Hassinu axloqiko'm" amri sharifi uzra xulqimizni tuzatmokg'a amr o'linganmiz. Lekin xalqimizning yaxshi bo'lishining asosiy panjasi tarbiyadir.

### **Xulosa**

Xulosa o'rnida shuni aytishim joizki, boshlang'ich ta'lim o'quvchilariga tarbiya berish muhim ahamiyatni talab qiladi. Asosan tarbiyaning maqsadi shuki bolalarga odob axloq qoidalarini o'rgatishdir. Shu sababli ham boshlang'ich ta'lim o'quvchilariga tarbiya fanini o'qitish yolga qo'yilgan. Bolalarga asosan oilada olgan tarbiyasi ham olohida ahamiyatni kashf etadi. Shu sababli otanalar tarbiyasi ham birinchi o'rinda turadi. Maktabda olgan ta'lim va tarbiyasi ham muhim ahamiyatgani kashf etadi..

### **References:**

1. Djurayev S.N, Turdiyeva N.S, Baxronova A.I, Tarbiyaviy ishlar metodikasi.
2. Abdulla Avloniy " Turkiy Guliston yoxud axloq", asaridan.
3. oefen.uz
4. Arxiv.uz

